

FORS TILINING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI**MURODULLAYEVA MUHARRAMOY RUSTAM QIZI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI SHARQ

XALQLARI TILLARI VA ADABIYOTI INSTITUTI TARJIMA

NAZARIYASI VA AMALIYOTI: FORS-INGLIZ YO'NALISHI TALABASI

TELEFON RAQAMI: +998772810336

E-MAIL: muxarrammurodulayeva@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada fors tilining bugungi kundagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu tilning ahamiyati turli kategoriyalar asosida yoritib berilgan. Jumladan, fors tilining tarixiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan. Fors-arab alifbosining o'ziga xos xususiyatlari, fors tilining ilm-fan va ta'lim sohasidagi o'rni izohlangan. Shu jumladan, fors tili bugungi kunda diplomatik aloqalar, tarjimonlik, tashqi savdo, turizm, xalqaro jurnalistika va logistika yo'nalishlarida ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola bugungi kunning sharqona tili bo'lmish fors tilining qanchalik muhimligini qisman ochib berishga xizmat qiladi.

KALIT SO'ZLAR: Eron, fors tili, Tehron, dialekt, yozma manbalar, diplomatik aloqalar, sharq xalqlari, sharq tillari

ABSTRACT: This article presents information on the significance of the Persian language in the contemporary world. The importance of this language is examined based on various categories. In particular, the historical, cultural, political, and economic significance of the Persian language is revealed. The distinctive features of the Persian-Arabic alphabet and the role of the Persian language in the fields of science and education are explained. In addition, the Persian language today plays a very important role in diplomatic relations, translation studies, foreign trade, tourism, international journalism,

and logistics. This article serves to partially reveal the importance of the Persian language as one of the prominent Eastern languages of the modern era.

KEY WORDS: Iran, Persian language, Tehran, dialect, written sources, diplomatic relations, Eastern peoples, Eastern languages.

АННОТАЦИЯ: В данной статье представлены сведения о значении персидского языка в современном мире. Значимость данного языка рассматривается на основе различных категорий. В частности, раскрываются историческое, культурное, политическое и экономическое значение персидского языка. Освещаются особенности персидско-арабского алфавита, а также роль персидского языка в сфере науки и образования. Кроме того, в настоящее время персидский язык играет важную роль в дипломатических отношениях, переводческой деятельности, внешней торговле, туризме, международной журналистике и логистике. Настоящая статья служит частичному раскрытию значимости персидского языка как одного из ведущих восточных языков современности.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Иран, персидский язык, Тегеран, диалект, письменные источники, дипломатические отношения, восточные народы, восточные языки.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida tillarning xalqaro muloqot, madaniy aloqalar va ilmiy hamkorlikdagi o'rnini tobora ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazarga ko'ra, fors tili ham o'zining ko'p asrlik tarixi, boy madaniy merosi va keng geografik tarqalishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Fors tili Eron, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlarning rasmiy yoki asosiy tillaridan biri bo'lib, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida muhim muloqot vositasi hisoblanadi. Ushbu til Sharq adabiyoti, falsafasi, diniy-ilmiy manbalar va tarixiy asarlarning asosiy tili sifatida ham katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda fors tilini o'rganish siyosiy, iqtisodiy, madaniy va akademik aloqalarni rivojlantirishda muhim omil

bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu sababli fors tilining bugungi kundagi ahamiyatini o‘rganish va tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqola ketma-ket fors tilining qaysi jabhalarda qanchalik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rib chiqamiz.

Fors tilining tarixiy va madaniy ahamiyati

Hozirgi fors tili Eronning davlat va adabiy tili hisoblanadi. Fors adabiy tilining tayanch dialekti Tehron dialekti hisoblanadi. Hozirgi kundagi fors tili o‘z yozuviga ega bo‘lgan eng qadimiy tillardan biridir. Fors tilining tarixiy taraqqiyot yo‘lini 3 ta asosiy bosqichga ajratish mumkin.

1. Qadimgi fors tili
2. O‘rta davr fors tili
3. Yangi ,ya’ni hozirgi fors tili

Har bir davr tilining o‘ziga xos grammatik xususiyatlari lug‘at o‘zgarishlari va ma‘lum yozuv sistemasi bo‘lgan. Qadimgi va o‘rta davr fors tili o‘lik til hisoblanib, uning grammatik qurilishi va lug‘at tarkibi haqida bizgacha etib kelgan yozma yodgorliklar orqaligina tushuncha hosil qilishimiz mumkin.¹ Tilning xususiyatlari haqida ham to‘xtalib o‘tamiz.

Fors-arab alifbosining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Yozuv o‘ngdan chapga qarab yoziladi va shunday o‘qiladi.
2. Fors-arab yozuvida bosh harf mavjud emas
3. Fors tilida bo‘g‘in ko‘chirish mumkin emas
4. Harflar so‘zdagi o‘rniga ko‘ra so‘z boshi, so‘z o‘rta, so‘z oxiri va alohida ko‘rinishga ega bo‘ladi
5. Fors tilining yana bir ajoyib xususiyatlaridan biri unda hech qanday tinish belgilarning yo‘qligi edi. XX asrdan boshlab ba‘zi bir tinish belgilar kirib kelgan.

Fors tilining bugungi kundagi siyosiy va iqtisodiy ahamiyati

Bugungi kunda ham O‘zbekistonning Navoiy, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo kabi hududlarida fors-tojik tilida gaplashadigan aholini uchratish mumkin. Fors tili Eron

¹ Murodqulov.O. Dehqonova,L.- Fors tili.Guliston-2010

Islom Respublikasining rasmiy tili hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1-moddasida O'zbekistonning dunyoviy davlat ekanligi e'tirof etilgan, 17-18-moddalarida olib boradigan tashqi siyosati haqida keltirilgan. O'zbekiston 1992-yilning 10-mayida Ashhobod shahrida imzolangan protokolda Eron Islom Respublikasi bilan do'stlik aloqalarini o'rnatgan va hozirda ushbu aloqalarni mustahkamlash maqsadida tegishli chora tadbirlarni ko'rmoqda. Masalan, yaqin 5 yil ichida fors tilini biladigan kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etayotganligi buning yaqqol misolidir. Fors tili dunyoning turli burchaklarida o'rganilmoqda. U madaniyat va tarixni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Fors tili o'zining boy tarixi va madaniy merosi bilan dunyo tillari orasida muhim o'rin tutadi. Shu o'rinda inglizcha so'zlarning fors tiliga kirib kelayotganligi ajablanarli jarayon emas. Bu jarayon Til akademiyasi kabi rasmiy muassasalar tomonidan uni jilovlashga qaratilgan doimiy olib borilayotgan sa'y-harakatlarga qaramay, oqim to'xtamayabdi. Ingliz tilining fors tiliga ta'siri XX asr o'rtalariga to'g'ri keladi. Biroq, u so'nggi o'n yilliklarda jadal rivojlandi, globallashuv tufayli, yangi texnologiyalar (internet, informatika), shuningdek, pop-madaniyat (videolar, filmlar, musiqa) orqali ham kirib keldi. Akademiya xorijiy so'zlarning kirib kelishiga qarshi kurashadi. Ushbu akademiya 1911-yilda fors tilini "himoya qilish" uchun tashkil etilgan. Akademiyaning asosiy faoliyati xorijiy umumiy yoki texnik atamalar uchun rasmiy forscha ekvivalentlarni yaratish va tasdiqlashdan iborat. Biroq bu tashkilot tomonidan yaratilgan ko'plab yangi so'zlar fors tilida so'zlashuvchilarning e'tiborini jalb qila olmadi.²

Fors tilining ilm-fan va ta'lim sohasidagi o'rni

Fors tili ilm-fan va ta'limda, ayniqsa tarixiy manbalar, fors tilidagi ilmiy asarlar, sharq xalqlari tillari va adabiyoti bilan bog'liq yo'nalishlarda muhim ahamiyatga ega. IX asrdan buyon ilmiy-madaniy til sifatida rivojlanib, O'zbekiston va Eron o'rtasidagi ta'limiy aloqalarda, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda ikkinchi til sifatida o'qitilishida katta o'rin tutadi. Endi fors tilining tarixiy va ilmiy ahamiyati haqida ma'lumotlar bilan tanishib chiqamiz. Fors tili asrlar davomida ilm-fan,

² <https://esiconf.org/index.php/TOSROF/article/download/2160/1992/3989>

she'riyat va falsafa tili hisoblanadi, shuningdek, ko'plab qo'lyozmalar va noyob asarlar fors tilida yaratilgan.

O'zbekistonda fors tili, ayniqsa, sharqshunoslik yo'nalishlarida chuqur o'rganiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida uni ikkinchi til sifatida o'qitish uslublari rivojlangan. Fors tili nafaqat ta'lim tizimida, balki xalqaro diplomatik aloqalarda ham muhimdir. Eron va O'zbekiston o'rtasidagi siyosiy, madaniy va ta'limiy hamkorlikda fors tili vositachilik vazifasini bajaradi. Sharq xalqlari tarixi, madaniyati va adabiyoti bo'yicha ilmiy tadqiqot olib boruvchi mutaxassislar uchun fors tilini bilish muhim hisoblanadi.

Fors tilining bugungi yoshlar va mehnat bozori uchun ahamiyati

Bugungi globalashuv davrida xorijiy tillarni bilish yoshlar uchun muhim ustunliklardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan fors tili ham o'zining tarixiy, madaniy va amaliy ahamiyati bilan alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, bugungi yoshlar va zamonaviy mehnat bozori uchun fors tilini bilish yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Avvalo, fors tili mehnat bozori nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Eron, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlar bilan iqtisodiy, savdo va madaniy aloqalarning rivojlanishi ushbu tilni biladigan mutaxassislarga ehtiyojni oshirmoqda. Tarjimonlik, tashqi savdo, diplomatiya, turizm, xalqaro jurnalistika va logistika sohalarida fors tilini biluvchi mutaxassislarga talab yuqori bo'ladi.

Ikkinchidan, fors tili yoshlar uchun ta'lim va ilmiy imkoniyatlar yaratadi. Fors tilida boy ilmiy, adabiy va falsafiy manbalar mavjud bo'lib, ularni asl nusxada o'qish va tahlil qilish ilmiy salohiyatni oshiradi. Shuningdek, Eron va Tojikiston oliy ta'lim muassasalarida tahsil olish, grand va almashinuv dasturlarida ishtirok etish imkoniyati ham kengayadi.

Uchinchidan, fors tilini o'rganish madaniy va tarixiy tafakkurni boyitadi. Fors tili Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan bo'lib, Alisher Navoiy, Jomiy, Hofiz, Sa'diy kabi mutafakkirlar merosini chuqurroq anglashga yordam beradi. Bu esa yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan qarashini yanada mustahkamlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, fors tili bugungi yoshlar uchun nafaqat til bilimi, balki raqobatbardosh kasb, keng dunyoqarash va barqaror kelajak sari muhim qadamdir. Tarjimonlik, diplomatik aloqalar, turizm, savdo ishlari kabi xalqaro hamkorliklarda fors tilini bilish noyob va qimmatli ko‘nikma sifatida yuqori baholanmoqda. Ayniqsa bugungi kunda Eron va O‘zbekiston aloqalari mustahkamlanayotgani evaziga O‘zbekistonda Eron firmalari soni ortib bormoqda. Bu esa fors tilining bugungi kundagi ahamiyatini yanada oshirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Murodqulov.O. Dehqonova,L.- Fors tili.Guliston-2010

<https://esiconf.org/index.php/TOSROF/article/download/2160/1992/3989>

Quronbekov.A.Vohidov.A,Ziyayeva.T,Djafarov.B.Fors tili.-Y.,-2025